



**MUHIIBBIY DEVONINING ILMIY-MONOGRAFIK TAVSIFI
(O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan Inv. № 935 qo'lyozma
asosida)**

Ziyayeva Durdona

TDSHU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Aminova Lola

Ilmiy rahbar: f.f.n, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy adabiyotning yirik vakili Muhibbiy (Sulton Sulaymon Qonuniy) devonining O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan (Inv. № 935) raqamli nusxasining ilmiy-monografik tavsifi yoritilgan. Tadqiqot davomida qo'lyozmaning nasta'liq xati, qog'ozi, poygir tizimi va bezaklari kabi paleografik xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, devonning janriy tarkibi o'rganilib, undagi 963 ta she'riy asarning joylashish tartibi aniqlandi. Natijada, 1903-1904-yillarda Muhammad Shariftomonidan ko'chirilgan ushbu nusxaning Muhibbiy merosini o'rganishdagi o'ziga xos ilmiy ahamiyati dalillandi.

Kalit so'zlar: Muhibbiy, Sulton Sulaymon, devon, qo'lyozma, nasta'liq, matnshunoslik, kolofon, poygir.

Аннотация. В данной статье представлено научно-монографическое описание рукописи дивана крупнейшего представителя тюркской литературы Мухибби (Султана Сулеймана Кануни), хранящейся в фонде Института востоковедения АН РУз под инв. № 935. В ходе исследования проанализированы палеографические особенности рукописи: почерк насталик, тип бумаги, система кустод (пойгир) и оформление. Изучен жанровый состав дивана, включающий 963 стихотворных произведения. Установлено научное значение данной копии, переписанной Мухаммадом Шарифом в 1903-1904 гг., для изучения литературного наследия Мухибби.

Ключевые слова: Мухибби, Султан Сулейман, диван, рукопись, насталик, текстология, колофон, кустода.

Abstract. This article provides a scientific and monographic description of the manuscript of the Divan by Muhibbi (Sultan Suleiman the Magnificent), a prominent representative of Turkic literature, preserved in the collection of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan (Inv. No. 935). The research analyzes paleographic features such as the Nasta'liq script, paper type, catchwords (poygir), and artistic decorations. The genre composition of the Divan, containing 963 poetic works, is examined. The study highlights the scientific significance of this specific copy, transcribed by Muhammad Sharif in 1903-1904, for the comprehensive study of Muhibbi's literary heritage.



Keywords: *Muhibbi, Sultan Suleiman, Divan, manuscript, Nasta'liq, textual studies, colophon, catchword.*

Turkiy mumtoz adabiyot tarixida hukmdor-shoir fenomeni alohida ilmiy qiziqish uyg'otuvchi hodisa hisoblanadi. Bu hodisaning eng yorqin namoyandalaridan biri — Sulton Sulaymon Qonuniy bo'lib, u adabiyotda "Muhibbiy" taxallusi bilan ijod qilgan. Shoirning devoni miqdor va mazmun jihatidan turkiy adabiyotdagi eng yirik lirik to'plamlardan biri sanaladi. Sulton Sulaymon (Muhibbiy) nafaqat davlat arbobi, balki turkiy g'azalchilik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, miqdor va sifat jihatidan salmoqli meros qoldirgan ijodkordir. Uning devoni tarkibiga kirgan g'azallari turkiy adabiyot, qolaversa jahon adabiyotida ahamiyatlidir. "Muhibbiy" taxallusi bilan tanilgan Qonuniy Sulton Sulaymon usmonlilar davri adabiyotida eng sermahsul ijod qilgan podshoh hisoblanadi¹³.

Sharq mumtoz adabiyotida devon tuzish shoirning badiiy tafakkuri, ijodiy salohiyati va adabiy maktabdagi o'rnini belgilovchi muhim mezon sifatida qaralgan. Shu bois Muhibbiy devoni nafaqat adabiy, balki tarixiy-madaniy manba sifatida ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Bugungi kunda Muhibbiy devonining ko'plab qo'lyozma nusxalari jahonning yirik ilmiy markazlarida saqlanadi. Shunga qaramay, O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondidagi Inv. № 935 raqamli qo'lyozma hali to'liq ilmiy-monografik tavsifga ega emas. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Tadqiqot maqsadi – Inv. № 935 qo'lyozmaning paleografik, matniy va badiiy xususiyatlarini ilmiy asosda tavsiflash hamda uning matnshunoslikdagi ahamiyatini aniqlashdir.

Tadqiqotda qo'lyozma tavsifini amalga oshirish usuli¹⁴, shu bilan birga quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: Manbashunoslik usuli – qo'lyozmaning kelib chiqishi, tarixiy davri va kitobat muhitini aniqlashda qo'llanildi. Paleografik tahlil – xat turi, qog'oz sifati, siyoh, bezak elementlari o'rganildi. Tarixiy-adabiy yondashuv – devonning adabiy jarayondagi o'rnini tahlil qilindi. Mazkur metodlar qo'lyozmaning kompleks ilmiy tavsifini yaratish imkonini berdi.

Muhibbiy ijodi XVI asr Usmoniy saroy adabiy muhitida shakllangan bo'lib, bu davr turkiy devon she'riyatining yuksalish davri hisoblanadi. Shoir ijodiga turkiy va forsiy adabiy an'analar kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ilk davrlarda, ya'ni XVI–XVII asrlarda Muhibbiy ijodi asosan tazkiralari orqali baholangan. Usmoniy adabiy muhitida yozilgan Latifiy, Ashik Chelebiy, Hasan Chelebi kabi tazkiranavislar Muhibbiyni shoir-sulton sifatida yuksak baholab, uning g'azallarini badiiy jihatdan yetuk namunalar sifatida e'tirof etganlar. Bu manbalarda Muhibbiy devonining hajmi, she'rlarining ravonligi va ishqiy-falsafiy mazmuni alohida ta'kidlanadi. XVI asrning mashhur tazkirachilaridan biri bo'lgan Ashik Chelebiy

¹³ İpekten, Haluk. Muhibbi Divanı. Ankara: TTK, 1987, s.15-20.

¹⁴ Qarang: Sh. Sirojiddinov, S. Umarova. O'zbek matnshunosligi qirralari, T., 2015. -B.11





(Âşık Çelebi) "Meshair ush Shuaro" nomli asarida Qonuniy Sulton Sulaymonning yuksak qobiliyat egasi ekanligini ta'riflaydi¹⁵.

Usmonlilar davrida yetishgan shoirlar ijodiga nazar solsak, Muhibbî, Muhîb ve Muhib mahlalari bilan sher yozgan podishohni haqiqatdan ham ko'p uchratamiz¹⁶. Muhibbiy ijodining shakllanishida Alisher Navoiy an'analari alohida ahamiyat kasb etadi. XVI asr usmoniy adabiy muhitida Navoiy Turkiy she'riyatning eng yuksak namunasi sifatida e'tirof etilgan. Muhibbiy g'azallarida Navoiyga xos badiiy tafakkur, ramziy obrazlar, ishqiy va axloqiy motivlarning davom ettirilishi kuzatiladi. Shoir turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini Usmoniy adabiy muhiti doirasida rivojlantirgan. Bundan tashqari, fors-tojik mumtoz adabiyoti ham Muhibbiy ijodiy muhitining muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Hofiz, Sa'diy, Jomiy kabi shoirlar merosi Usmoniy saroyida keng o'rganilgan va Muhibbiy she'riyatida ramziy tasvirlar, tashbeh va isti'oralarning boyligida o'z aksini topgan. XVI asr diniy -ma'rifiy muhitida tasavvuf alohida o'rin tutgan. Muhibbiy ijodida ilohiy ishq, foniylilik va oxirat g'oyalari yetakchi mavzulardan bo'lib, bu holat shoirning davr ruhiy -ma'naviy muhitidan oziqlanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Muhibbiy ijodi Usmoniy saroy adabiy muhiti, turkiy va forsiy adabiy an'analari hamda tasavvufiy qarashlar uyg'unligida shakllangan yuksak badiiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Muhibbiy devonlarining qo'lyozma an'anasi XVI asrdan boshlab keng geografik hududda shakllangan bo'lib, Usmoniylar saltanati madaniy hayoti va turkiy mumtoz adabiyot taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shoirning adabiy shuhrati va saroy muhitidagi mavqei tufayli uning g'azallari hayotligidayoq ko'chirilgan va devon holiga keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan Inv. № 935 raqamli qo'lyozma Muhibbiy devonining muhim va nisbatan mukammal nusxalaridan biri hisoblanadi. Mazkur qo'lyozma Muhibbiy ijodining keng tarqalganligi va uning she'riy merosi keyingi davrlarda ham muntazam ravishda mutolaa qilinganidan dalolat beradi. Qo'lyozma alohida devon shaklida tuzilgan bo'lib, unda shoirning g'azallari va boshqa she'riy janrlari an'anaviy sharqona tartibda jamlangan. Devon "Bismillahir rohmanir rohim" iborasi hamda hamd mazmunidagi g'azal bilan boshlanadi,

ذکر بسم الله الرحمن الرحيم
آشکار و گزلیه سنسن علیم
دردمندم در دومه ایله دوا
کم کمو خستهلره سنسن حکیم
حمد لله کم محمد امتی
ایلدون بو بندلری یا کریم

¹⁵ Aşık Çelebi. Meşair uş şuara. İstanbul. 1568 yıl. 23s

¹⁶ Muhibbî Dîvanı'nın Yeni Bir Nüshası Münasebeti İle. Orhan Yavuz. Türklük Bilimi Araştırmaları. 49 sayı. 2021-Bahar. 152s.



صون نفسده سقله ایمانوم بنم

بولمایه یول آنا شیطان رجیم

مصطفی نون حرمتنه یا اله

سن میسر ایله جنت نعیم

روز محشرده محبی بندنی

ایر مه آنی رحمتندن یا رحیم

[Zikr-i bismillāhir-raḥmānir-raḥīm

Āşikār u gizlüye sensin 'alīm

Derdmendem derdüme eyle devā

Kim kamu hastalara sensin ḥakīm

Ḥamdü lillāh kim Muḥammed ümmeti

Eyledün bu bendeleri yā Kerīm

Soñ nefesde saḡla īmānum benüm

Bulmaya yol aña şeyṭān-ı racīm

Muştafānun ḥürmetine yā İlāh

Sen müyesser eyle cennāt-ı na'īm

Rūz-ı maḥşerde Muḥibbī bendenī

Irma anı raḥmetüñden yā Raḥīm]

oxiri esa ilohiy ruhdagi munojot va duo mazmunidagi baytlar bilan yakun topadi. Bu holat asarning mumtoz devon tuzish an'analariga to'liq mos kelishini ko'rsatadi.

بسم الله الرحمن الرحيم

صَلَّى ان يكون لطيف الرحمن

اعزّ دائم دولت و شوكتن

بو كتاب فرمان عالي داري عبد الله بك

عبد فقير الحقيّر محمد شريف دران ابن

الله بركان دائم مرحوم موافق

تمّت بتوفيق الملك الباري

سنة ١٢٧٣ هجري

[Bismillāh ir-raḥmān ir-raḥīm.

Şalā an yakūn laṭīfan ar-raḥmān,

a'azz dā'im dawlatin va shavkatin.

Bu kitob farmān 'ālī-dārī 'Abdulloḥ beg.

'Abd-i faqīr, al-ḥaqīr Muḥammad Sharīf, Darān ibn

li-llāhi barakān, dā'im marḥūm muwāfiq.

Tammat bi-tawfiq al-malik al-bārī,

sana 1273 hijrī.]

Inv. № 935 qo'lyozma nusxasi hajm jihatidan salmoqli bo'lib, unda jami 963 ta she'riy asar jamlangan. Bu ko'rsatkich mazkur nusxaning Muhibbiy lirik merosini keng qamrab olganligini tasdiqlaydi. Asarlar asosan g'azal janrida bo'lib, ayrim hollarda boshqa mumtoz she'riy shakllar ham uchraydi. Qo'lyozma yaxshi saqlangan holatda bizgacha yetib kelgan.





Sahifalarda jiddiy mexanik shikastlanishlar yoki matn yo'qolishlari kuzatilmaydi. Bu esa nusxaning ilmiy tadqiqotlar uchun qulay va ishonchli manba ekanini ko'rsatadi. Qo'lyozmaning umumiy holati uni paleografik, matnshunoslik va adabiy jihatdan kompleks tadqiq etish imkonini beradi.

Mazkur qo'lyozma XX asr boshlarida ko'chirilgan bo'lib, bu davr Markaziy Osiyo kitobat an'analari va Usmoniy adabiy merosining o'zaro uyg'unlashgan bosqichini aks ettiradi. Shu jihatdan Inv. № 935 nusxa Muhibbiy devonlarining kechki qo'lyozma an'anasini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Inv. № 935 raqamli Muhibbiy devoni qo'lyozmasining paleografik xususiyatlari uni XX asr boshlarida Markaziy Osiyo kitobat an'analari asosida ko'chirilgan, professional darajadagi nusxa ekanini ko'rsatadi. Qo'lyozma tashqi ko'rinishi, xat turi, qog'oz sifati va bezak elementlari jihatidan mukammal ishlangan. Qo'lyozma qora rangli karton muqova bilan qoplangan bo'lib, muqovaning markaziy qismida yirik gulli naqsh, yuqori va quyi qismlarida esa mayda qizil rangli bezak elementlari mavjud. Bu holat nusxaning estetik jihatdan puxta ishlanganini va uzoq muddat saqlash uchun mo'ljallanganini ko'rsatadi. Asar matni pushti rangli fabrika qog'oziga bitilgan. Qog'ozning bir tekis va silliq tuzilishga egaligi, suv belgilarining deyarli ko'zga tashlanmasligi qo'lyozmaning sanoat usulida tayyorlangan qog'ozda ko'chirilganini anglatadi. Bu esa XX asr boshlarida qo'lyozma kitobatida fabrika qog'ozlaridan keng foydalanila boshlangan davrga mos keladi.

Matn nafis va o'qilishi ravon bo'lgan nasta'liq xatida yozilgan. Harflarning mutanosibligi, satrlar orasidagi masofaning bir xilligi va yozuvning barqarorligi kotibning yuqori darajadagi xattotlik mahoratidan dalolat beradi. Har bir sahifa ikki ustun shaklida joylashtirilgan bo'lib, har ustunda o'rtacha 7–8 satrdan, umumiy hisobda esa 15–16 satr she'riy matn keltirilgan. Sahifa tuzilishida an'anaviy sharqona kompozitsiya saqlangan. Matn atrofi bo'sh qoldirilgan, satrlar sahifa chetiga zich joylashtirilmagan. Bu usul matnning o'qilishini osonlashtirish bilan birga, qo'lyozmaning estetik ko'rinishini ham ta'minlaydi.

Janr va bo'lim sarlavhalari qizil siyoh bilan ajratib yozilgan bo'lib, ular matndan yaqqol farqlanadi. Qo'lyozmada sahifalar ketma-ketligini ta'minlash maqsadida poygir (kustoda) tizimi izchil qo'llangan. Har bir sahifaning quyi qismida keyingi sahifaning birinchi so'zi yoki bo'g'ini yozib qoldirilgan. Bu holat nusxaning matniy aniqligini saqlash va sahifalar chalkashib ketishining oldini olishga xizmat qilgan. Siyoh sifatiga e'tibor qaratilganda, asosiy matn qora rangli siyohda, sarlavha va ayrim ajratuvchi elementlar esa qizil siyohda bitilgani kuzatiladi. Siyohning hozirgacha deyarli o'chmaganligi, rangining barqarorligi qo'llangan materiallarning sifatli bo'lganidan dalolat beradi. Umuman olganda, Inv. № 935 raqamli qo'lyozmaning paleografik belgilarining barchasi uni professional kotib tomonidan, ilmiy va estetik talablar asosida ko'chirilgan mukammal manba sifatida baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, Inv. № 935 raqamli qo'lyozma Muhibbiy devonining boshqa nusxalariga nisbatan matniy to'liqligi, leksik variantlarning boyligi va janriy izchilligi bilan ajralib turadi. Mazkur farqlar ushbu nusxani Muhibbiy devonining tanqidiy matnini tayyorlashda muhim qiyosiy manba sifatida baholash imkonini beradi. Muhibbiy devoni



nafaqat matnshunoslik va paleografik jihatdan, balki badiiy-g‘oyaviy mazmuni nuqtayi nazaridan ham mumtoz turkiy adabiyot taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Devon tarkibidagi g‘azallar shoirning dunyoqarashi, ishq va inson haqidagi falsafiy qarashlari, tasavvufiy tafakkuri hamda hukmdor-shoir sifatidagi ruhiy kechinmalarini aks ettiradi. Devonning yetakchi g‘oyasi — ishq tushunchasidir. Muhibbiy ijodida ishq ikki qirrada namoyon bo‘ladi: dunyoviy (insoniy) va ilohiy ishq. Shoir ko‘plab g‘azallarida ma’shuqa siymosi orqali ilohiy haqiqatni ramziy tarzda ifodalaydi. Bu holat mumtoz sharq she’riyatiga xos bo‘lgan tasavvufiy talqin bilan uyg‘unlashadi. Ishq shoir nazarida insonni komillikka yetaklovchi, qalbni poklovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Muhibbiy g‘azallarida foniylilik va boqiylik masalasi ham muhim o‘rin egallaydi. Shoir dunyo ne’matlarining o‘tkinchiligini ta’kidlab, insonni ma’naviy qadriyatlarga yuzlanishga chorlaydi. Bu g‘oya hukmdor shaxsiyatiga xos hayotiy tajriba va falsafiy mushohadalar bilan boyitilgan. Ayrim baytlarda shoir saltanat qudrati bilan inson ojizligi o‘rtasidagi ziddiyatni badiiy tasvirlaydi.

Devonda axloqiy-didaktik g‘oyalar ham yetakchi qatlamni tashkil etadi. Adolat, rahm-shafqat, kamtarlik, sabr va shukronalik kabi tushunchalar shoir ijodida doimiy takrorlanadi. Bu jihat Muhibbiy ijodini faqat ishqiy-lirik asar sifatida emas, balki ma’naviy-ma’rifiy manba sifatida ham baholash imkonini beradi. Badiiy obrazlar tizimida mumtoz she’riyatga xos bo‘lgan yor, oshiq, raqib, gul, bulbul, may, soqiy kabi ramziy obrazlar keng qo‘llaniladi. Ushbu obrazlar orqali shoir murakkab ruhiy holatlarni, ishqiy kechinmalarni va falsafiy xulosalarni ifodalaydi. Muhibbiy obraz yaratishda Navoiy an‘analariga tayangan holda, Usmoniy adabiy muhitiga xos noziklik va nafislikni namoyon etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan Inv. № 935 qo‘lyozma.
2. İpekten, Haluk. Muhibbi Divanı. – Ankara: TTK, 1987.
3. Sirojiddinov Sh., Umarova S. O‘zbek matnshunosligi qirralari. – T., 2015.
4. Aşık Çelebi. Meşair uş şuara. – İstanbul, 1568 yıl.
5. Muhibbî Dîvanı’nın Yeni Bir Nüshası Münasebeti İle. Orhan Yavuz. Türklük Bilimi Araştırmaları. 49 sayı. 2021-Bahar.

